



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalar misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

EKO-MEHMONXONA TUSHUNCHASI, TURLARI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI

КОНЦЕПЦИЯ, ТИПЫ И ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЭКО-ОТЕЛЯ

THE CONCEPT, TYPES AND MAIN FEATURES OF AN ECO-HOTE

Yunusova Sohiba Abdulmamidovna

Namangan davlat universiteti, katta o‘qituvchisi

ORCID:0009-0006-6710-7314

Turg‘unboyev Abbosbek Akmaljon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola eko-mehmonxona tushunchasini klassik, neoklassik, keynschilik va zamonaviy iqtisodiy maktablar prizmasida tahlil qilib, uning resurs samaradorligi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikdagi rolini ochib beradi. Tadqiqotda eko-mehmonxonalarining beshta asosiy turi ekolodj, shahar eko-oteli, agroturistik majmua, glamping va bio-iqlimiy obyektlarning o‘ziga xos iqtisodiy drayverlari va CAPEX/OPEX ko‘rsatkichlari qiyosiy o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Eko-mehmonxona, yashil iqtisodiyot, differensial renta, eksternaliya, ekolodj, glamping, energiya samaradorligi, ESG reytingi, investitsiya qaytimi, barqaror rivojlanish.

В данной статье анализируется концепция эко-отеля через призму классической, неоклассической, кейнсианской и современной экономических школ, раскрывается его роль в повышении эффективности использования ресурсов и социально-экономической устойчивости. В исследовании проводится сравнительное изучение специфических экономических факторов и показателей капитальных и операционных затрат пяти основных типов эко-отелей: эко-лоджа, городского эко-отеля, агротуристического комплекса, глэмпинга и биоклиматических объектов.

Ключевые слова: Эко-отель, зеленая экономика, дифференцированная renta, внешние эффекты, эко-лодж, глэмпинг, энергоэффективность, ESG-рейтинг, рентабельность инвестиций, устойчивое развитие.

This article analyzes the concept of eco-hotel through the prism of classical, neoclassical, Keynesian and modern economic schools, revealing its role in resource efficiency and socio-economic sustainability. The study comparatively studies the specific economic drivers and CAPEX/OPEX indicators of five main types of eco-hotels — ecolodge, urban eco-hotel, agrotourism complex, glamping and bio-climatic facilities.

Keywords: Eco-hotel, green economy, differential rent, externality, ecolodge, glamping, energy efficiency, ESG rating, return on investment, sustainable development.

Adam Smit va David Rikardo asos solgan klassik maktab eko-mehmonxona tushunchasini bevosita “tabiiy resurslar rentasi” va unumdorlik bilan bog‘laydi. Klassiklar nazariyasida yer va tabiat ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biridir; binobarin, eko-mehmonxona bu joylashgan o‘rni (lokatsiyasi) va tabiiy boyliklari tufayli “differensial renta” hosil qiluvchi iqtisodiy subyektdir [1]. Klassik iqtisodchilar nuqtai nazaridan, mehmonxonaning yashil strategiyasi resurslardan (oziq-ovqat, yoqilg‘i, suv) foydalanishda samaradorlikni oshirish orqali “mehnat unumdorligini” ko‘tarishga qaratilgan bo‘lishi shart. Rikardo nazariyasiga tayanadigan bo‘lsak, eko-mehmonxona o‘zining ekologik tozaligi bilan raqobatchilaridan ustun turadi va bu unga cheklangan tabiiy resurslardan foydalanganlik evaziga yuqoriroq narx belgilash huquqini beradi.

Neoklassik maktab, xususan Alfred Marshall va keyinchalik Artur Pigu, eko-mehmonxonani “bozor muvozanati” va “tashqi ta’sirlar” (externalities) kontekstida ta’riflaydi. Neoklassiklar uchun eko-mehmonxona bu salbiy eksternaliyalarni (atrof-muhitga zarar) minimallashtiradigan va ijobiy eksternaliyalarni kapitallashtiradigan ratsional iqtisodiy modeldir. Bu maktab vakillari “iste’molchi foydaliligi” (utility) tushunchasiga tayanib, eko-mehmonxonani sayyohning ekologik ehtiyojlarini qondiruvchi va shu orqali o‘z foydasini maksimallashtiruvchi korxona deb bilishadi.

Jon Meynard Keynes va uning izdoshlari yashil iqtisodiyotni mehmonxona sanoatiga tatbiq etishda “samarali talab” va “davlat investitsiyalari” rolini birinchi o‘ringa qo‘yadilar. Keynschilik maktabi uchun eko-mehmonxona bu inqirozga qarshi barqarorlikni ta’minlovchi va yangi ish o‘rinlari yaratuvchi investitsion loyihadir. Bu nazariyaga ko‘ra, davlat yashil mehmonxonalar qurilishiga subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratishi orqali iqtisodiyotda “yashil multiplikator” effektini ishga tushirishi lozim. Keynschilar eko-mehmonxonani faqat xususiy korxona emas, balki agregat talabni rag‘batlantiruvchi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi (energiya importiga bog‘liqlikni kamaytirish orqali) strategik obyekt sifatida ta’riflaydi. Ularning fikricha, yashil investitsiyalar iqtisodiy turg‘unlik davrida turizm sektorini jonlantirishning eng kuchli qurolidir.

1-jadval

Iqtisodiy maktablarning eko-mehmonxonalar uchun berilgan qisqa ta’riflari va ularning asosiy iqtisodiy kategoriyalari

Maktab	Eko-mehmonxonaga berilgan ta’rif	Asosiy iqtisodiy kategoriya
Klassik	Tabiiy resurslardan foydalanishning unumdor shakli.	Differensial renta va tabiiy boylik.
Neoklassik	Salbiy eksternaliyalarni minimallashtiruvchi ratsional subyekt.	Bozor muvozanati va marjinal foyda.
Keynschilik	Yashil multiplikator orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi loyiha.	Agregat talab va davlat investitsiyasi.
Sotsial	Jamiyat va mahalliy hamjamiyat farovonligini oshiruvchi institut.	Ijtimoiy kapital va inklyuzivlik.
Zamonaviy	Aylana iqtisodiyot va resurslar chidamliligiga asoslangan tizim.	ESG reytingi va resurslar samaradorligi.

Manba Muallif ishlanmasi.

Sotsial iqtisodiy maktab va institutsionalizm vakillari eko-mehmonxonani “ijtimoiy capital” va “hamjamiyat manfaatlari” tizimi sifatida ko‘radi. Bu maktab uchun eko-mehmonxona bu faqat foyda olish maskani emas, balki mahalliy aholining yashash standartlarini oshiruvchi, madaniy merosni asrovchi va ijtimoiy tengsizlikni kamaytiruvchi institutdir. Sotsial maktab ta’rifida eko-mehmonxona “mas’uliyatli tadbirkorlik”ning namunasi bo‘lib, u o‘z foydasini jamiyat farovonligi bilan muvofiqlashtiradi. Bu yerda iqtisodiy samaradorlik nafaqat pulda, balki mahalliy aholining bandligi, ularning salomatligi va hududning ekologik xavfsizligi bilan o‘lchanadi. Eko-mehmonxona bu maktab nazarida “insoniy taraqqiyot indeksi”ga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy ekotizimdir. Eko-mehmonxonalar zamonaviy iqtisodiy tizimda shunchaki ekologik turar-joylar emas, balki resurslarni boshqarishning yuqori texnologik va iqtisodiy jihatdan optimallashtirilgan modellaridir. Yashil iqtisodiyot nuqtai nazaridan, ushbu obyektlar o‘zining operatsion tuzilishi, kapital sig‘imi va daromad shakllantirish mexanizmlariga ko‘ra bir necha fundamental turlarga bo‘linadi [2]. Quyida ushbu turlarning o‘ta ilmiy va iqtisodiy tahlili keltirib o‘tamiz.

1. Ekolodjlar (eco-lodges).

Ekolodjlar yashil iqtisodiyotning “ekotizim xizmatlari”ni bevosita iqtisodiy mahsulotga aylantiruvchi eng sof shakli hisoblanadi. Iqtisodiy ta’rifga ko‘ra, ekolodj bu inson oyog‘i tegmagan yoki kam o‘zlashtirilgan hududlarda joylashgan, atrof-muhitga salbiy eksternaliyalari nolga yaqin bo‘lgan va tabiiy landshaftni asosiy sifatida ishlatuvchi turar-joy maskanidir. Ushbu turdagi obyektlar ko‘pincha “yuqori narx — past hajm” iqtisodiy modeliga tayanadi. Binobarin, ekolodjlarning rentabelligi an’anaviy mehmonxonalardagi kabi masshtab effekti orqali emas, balki “eko-ekslyuzivlik” va noyob tabiiy resurslarning yuqori marjali rentasi orqali ta’minlanadi. Iqtisodiy multiplikator nuqtai nazaridan, ekolodjlar mahalliy hamjamiyat bilan eng zich bog‘langan modeldir;

ular ta'minot zanjirini to'liq hududiy resurslar asosida shakllantiradi, bu esa milliy iqtisodiyotda "leakage" (daromad oqishi) fenomenini deyarli yo'q qiladi [1].

2. Barqaror shahar mehmonxonalari (sustainable urban hotels).

Shahar sharoitidagi eko-mehmonxonalar yashil iqtisodiyotning "resurs tejamkorligi" tamoyilini mikrodarajada amalga oshiruvchi iqtisodiy subyektlardir. Ularning iqtisodiy ta'rifi binolarni aqlli boshqarish tizimlari (bms), energiya tejovchi texnologiyalar va suvni qayta ishlash sikllari orqali operatsion xarajatlarni (opex) minimallashtirishga asoslanadi. Neoklassik iqtisodiy tahlilga ko'ra, ushbu mehmonxonalar uzoq muddatli kapital qo'yilmalar (capex) evaziga o'zgaruvchan xarajatlarni (variable costs) keskin kamaytiradi, bu esa ularning bozordagi narx raqobatbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari, shahar eko-mehmonxonalari esg (environmental, social, and governance) reytinglari orqali xalqaro moliya bozorlaridan arzonroq kapital jalb qilish imkoniyatiga ega. Ularning iqtisodiy ahamiyati shundaki, ular shahar infratuzilmasiga tushadigan yukni (kommunal xizmatlar, chiqindi) kamaytiradi va bu orqali munitsipal iqtisodiyotda ijobiy eksternaliyalar hosil qiladi.

3. Agroturistik va fermer eko-majmualari.

Agroturistik eko-mehmonxonalar qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarining vertikal integratsiyasi natijasida vujudga keladigan iqtisodiy modeldir. Ta'rifga ko'ra, ushbu obyektlar mehmonlarga "fermadan dasturxongacha" (farm-to-table) iqtisodiy zanjiri asosida xizmat ko'rsatib, oziq-ovqat mahsulotlarining transport va vositachilik xarajatlarini (transaction costs) nolga tushiradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, bu yerda turizm mahsuloti va qishloq xo'jaligi mahsuloti o'zaro sinergiya hosil qiladi: turistik xizmat fermer xo'jaligining asosiy mahsulotiga yuqori qo'shilgan qiymat (added value) beradi. Bu model yashil iqtisodiyotning "inklyuziv o'sish" maqsadlariga to'la javob beradi, chunki u qishloq joylarida diversifikatsiyalangan daromad manbalarini yaratadi va urbanizatsiya bosimini kamaytiradi. Agroturistik majmualar bu resurslarning aylana (circular) harakatini ta'minlovchi, chiqindini o'g'itga, tabiatni esa daromadga aylantiruvchi barqaror biznes modelidir.

4. Glampinglar.

Glampinglar yashil iqtisodiyotning "egiluvchan kapital" (flexible capital) va past invazivlik (minimal land use) tamoyillariga asoslangan turidir. Iqtisodiy ta'rifga ko'ra, glamping bu kapital xarajatlari an'anaviy kapital qurilishga nisbatan 50-70% gacha kam bo'lgan, ammo xizmat narxi besh yulduzli mehmonxonalar darajasida shakllanadigan yuqori rentabelli modeldir. Glampinglarning iqtisodiy ustunligi ularning mobilligida va mavsumiy talabga tez moslashishida namoyon bo'ladi. Ular hududning landshaftiga doimiy zarar yetkazmasdan, qisqa muddat ichida investitsiya qaytimini (roi) ta'minlaydi. Yashil iqtisodiyot nuqtai nazaridan, glampinglar "minimalizm va hashamat" uyg'unligini monetizatsiya qiladi, bu esa iste'molchi psixologiyasidagi barqarorlikka bo'lgan talabni iqtisodiy foydaga aylantirishning eng samarali yo'lidir.

2-jadval

Eko-mehmonxonalar turlarining qiyosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Mehmonxona turi	Asosiy Iqtisodiy Drayver	Kapital Sig'imi (CAPEX)	Operatsion Xarajatlar (OPEX)	Investitsiya Qaytimi (ROI)
Ekolodj	Tabiiy renta va eksklyuzivlik	O'rtacha/Yuqori	O'rtacha	Uzoq muddatli
Shahar Eko-mehmonxonasi	Texnologik tejamkorlik va ESG	Yuqori	Past	O'rta muddatli
Agroturistik majmua	Sektoral integratsiya	O'rtacha	Past (o'z resurslari)	O'rta muddatli
Glamping	Minimalist investitsiya	Past	O'rtacha	Qisqa muddatli
Bio-iqlimiy mehmonxona	Energiya avtonomiyasi	O'ta Yuqori	Minimal	Strategik/Uzoq muddatli

Manba Muallif ishlanmasi.

5. Bio-iqlimiy va passiv mehmonxonalar.

Bio-iqlimiy mehmonxonalar bu me'moriy yechimlar va muhandislik innovatsiyalari orqali tashqi energiya manbalaridan butunlay mustaqil (off-grid) bo'lishga intiluvchi “nol energiya” (zero-energy) binolaridir. Iqtisodiy ta'rifga ko'ra, bu turdagi eko-mehmonxonalar energiya bozoridagi narxlar volatilligidan (tebranishlaridan) to'liq sug'urtalangan aktivlar hisoblanadi. Ularning iqtisodiy qiymati “passiv dizayn” (tabiiy yorug'lik, geotermal isitish) orqali uzoq muddatli ekspluatatsiya xarajatlarini deyarli yo'q qilishda ko'rinadi. Bunday mehmonxonalar “yashil ko'chmas mulk” (green real estate) bozorida eng yuqori likvidlikka ega, chunki ularning bozor qiymati vaqt o'tishi bilan resurslar qimmatlashishi fonida faqat o'sib boradi. Iqtisodiy strategiya nuqtai nazaridan, bio-iqlimiy mehmonxonalar bu kelajakdagi iqlim o'zgarishi risklarini bugunning o'zida kapitallashtirish demakdir [3].

O'zbekistonning geografik diversifikatsiyasi va tabiiy resurslar salohiyati mamlakatda eko-mehmonxona sanoatining bir necha ixtisoslashgan turlari shakllanishiga zamin yaratdi. Ushbu turar-joy obyektlarining iqtisodiy faoliyati yashil iqtisodiyotning resurs tejash, mahalliy multiplikatorni oshirish va ekologik rentani kapitallashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Tahlillarga ko'ra, ekolodjlarda o'rtacha sutkalik narx (ADR) shahar mehmonxonalariga nisbatan 1,45 baravar yuqori. Joy band qilish ko'rsatkichi (Occupancy rate) barqaror ravishda 0,68 dan 0,75 gacha bo'lgan diapazonni tashkil etadi. Iqtisodiy multiplikator effekti bu yerda 1,92 koeffitsiyentga teng bo'lib, mahalliy oziq-ovqat yetkazib beruvchilar bilan vertikal integratsiyalashuv darajasi (Local supply ratio) 0,85 ni tashkil etadi. Bu korxonalarning iqtisodiy faoliyati hududiy yalpi mahsulotning (HYM) barqaror o'sishiga bevosita 0,12 punktlilik hissa qo'shadi [4].

3-jadval

O'zbekiston eko-mehmonxona sektorining 2025-yil yanvar-dekabr oylaridagi xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlari [5]

Ko'rsatkich nomi	Ekolodj (Tog')	Glamping (Sahro)	Agroturistik	Shahar eko-oteli
ROI koeffitsiyenti	0,18	0,52	0,32	0,14
OPEX/Revenue nisbati	0,42	0,28	0,35	0,48
Mahalliy multiplikator	1,92	1,45	2,15	1,28
Energiya tejamkorligi	0,45	0,82	0,38	0,55
Talab o'sish indeksi	1,22	1,35	1,18	1,12

Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatlaridagi fermer xo'jaliklari negizida tashkil etilgan agroturistik obyektlar qishloq xo'jaligi va turizmning sinergetik integratsiyasini namoyon etadi. Ushbu obyektlarning iqtisodiy faoliyati “fermadan dasturxongacha” tamoyili asosida oziq-ovqat mahsulotlari tannarxini 0,45 baravargacha qisqartirish imkonini beradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agroturistik eko-majmualarda qo'shilgan qiymat koeffitsiyenti 3,42 ni tashkil etadi. Mahalliy aholi daromadlarining o'sish koeffitsiyenti ushbu klasterlar ta'sirida 1,25 darajasida qayd etilgan. Bunday model yashil iqtisodiyotning “inklyuziv o'sish” maqsadlariga to'la mos kelib, daromad oqishi (leakage) koeffitsiyentini minimal 0,12 darajasigacha tushirishga xizmat qiladi.

Toshkent va Samarqand kabi yirik shaharlarda faoliyat yurituvchi eko-sertifikatlangan mehmonxonalar resurslarni boshqarishning yuqori texnologik modelini qo'llaydilar. Ularning iqtisodiy faoliyatida energiya samaradorligi (Energy efficiency ratio) 0,38 darajasida, suv tejamkorligi (Water efficiency ratio) esa 0,42 darajasida shakllangan. Iqtisodiy ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, yashil mehmonxonalar an'anaviy raqobatchilariga nisbatan EBITDA marjasini 0,15 punktga yuqori darajada saqlab turadi. Bu obyektlar ESG (Environmental, Social, Governance) reytinglari bo'yicha 0,85 dan yuqori ballga ega bo'lganligi sababli, xalqaro moliya institutlaridan foiz stavkasi 0,03 dan 0,05 punktgacha past bo'lgan “yashil kreditlar” jalb qilishda strategik ustunlikka ega [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Smith, A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: Strahan and Cadell, 1776. – 1100 p.
2. Бобылев С.Н., Захаров В.М. Зеленая экономика и модернизация. Эколого-экономические основы устойчивого развития. – М.: Экономика, 2020. – 272 с. 3. Legrand W., Sloan P., Chen J.S. Sustainability in the Hospitality Industry: Principles of Sustainable Operations. – 4th edition. – London: Routledge, 2022. – 612 p.
4. Актуальные проблемы развития индустрии гостеприимства в условиях перехода к устойчивому развитию: Материалы всероссийской научно-практической конференции. – СПб.: Изд-во СПбГЭУ, 2021. – 186 с.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (stat.uz). O‘zbekiston ekomehmonxona sektorining 2025-yil yanvar-dekabr oylaridagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari: statistik to‘plam. – T., 2026.
6. Ricardo, D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817.
7. Marshall, A. Principles of Economics. – London: Macmillan and Co., 1890.

UDK: 338.46

**XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINING
MAZMUN-MOHİYATI VA XUSUSIYATLARI**

CONTENT AND FEATURES OF COMPETITIVENESS OF SERVICE ENTERPRISES

**СОДЕРЖАНИЕ И ОСОБЕННОСТИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ
ПРЕДПРИЯТИЙ, ПРЕДОСТАВЛЯЮЩИХ УСЛУГИ**

Barnayev Zarif Sharifovich

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Muallif raqobatbardoshlik tushunchasining evolyutsiyasini ko‘rib chiqib, xizmat sohasidagi korxonalar uchun xos bo‘lgan raqobat omillarini aniqlagan.

Kalit so‘zlar: raqobatbardoshlik, xizmat ko‘rsatish sohasi, raqobat ustunligi, xizmat sifati, innovatsion rivojlanish

В данной статье рассматриваются сущность и специфические характеристики конкурентоспособности предприятий сферы услуг с научно-теоретической точки зрения. Автор анализирует эволюцию понятия конкурентоспособности и выявляет факторы конкурентоспособности, характерные для предприятий сферы услуг.

Ключевые слова: конкурентоспособность, сфера услуг, конкурентное преимущество, качество услуг, инновационное развитие

This article analyses the essence and specific characteristics of the competitiveness of service sector enterprises from a scientific and theoretical perspective. The author examines the evolution of the concept of competitiveness and identifies the competitive factors specific to service-sector enterprises.

Key words: competitiveness, service sector, competitive advantage, service quality, innovative development